TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafrō‘z Elshodovna	



TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI

Axmedova Dilafrō'z Elshodovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida depozit bazasining barqarorligiga ta'sir etuvchi omil sifatida foiz siyosati va uning amaliy jihatlari tahlil qilingan. Maqolada foiz siyosati bankning depozitlarini jalb qilish va saqlash, resurslar bazasini mustahkamlash hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, depozit turlari va muddatlari, mijozlar segmentatsiyasi hamda bozor kon'yunkturasiga muvofiq foiz stavkalari belgilash amaliyoti o'rganilgan. Tahlillar natijasida banklar uchun barqaror depozit bazasini shakllantirishda to'g'ri foiz siyosati muhim strategik omil ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: depozit bazasi, foiz siyosati, muddatli depozitlar, jismoniy va yuridik shaxslar, bank resurslari, moliyaviy barqarorlik, tijorat banklari.

Abstract. This article analyzes interest rate policy and its practical aspects as a factor influencing the stability of commercial banks' deposit base. The study examines the role of interest rate policy in attracting and retaining deposits, strengthening the bank's resource base, and ensuring financial stability. It also investigates deposit types and terms, client segmentation, and the practice of setting interest rates in accordance with market conditions. The analysis highlights that a proper interest rate policy is a crucial strategic factor in forming a stable deposit base for banks.

Key words: deposit base, interest rate policy, term deposits, individuals and legal entities, bank resources, financial stability, commercial banks.

АННОТАЦИЯ. Ushbu maqolada tijorat banklarida depozit bazasining barqarorligiga ta'sir etuvchi omil sifatida foiz siyosati va uning amaliy jihatlari tahlil qilingan. Maqolada foiz siyosati bankning depozitlarini jalb qilish va saqlash, resurslar bazasini mustahkamlash hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, depozit turlari va muddatlari, mijozlar segmentatsiyasi hamda bozor kon'yunkturasiga muvofiq foiz stavkalari belgilash amaliyoti o'rganilgan. Tahlillar natijasida banklar uchun barqaror depozit bazasini shakllantirishda to'g'ri foiz siyosati muhim strategik omil ekanligi ta'kidlanadi.

Ключевые слова: depozit bazasi, foiz siyosati, muddatli depozitlar, jismoniy va yuridik shaxslar, bank resurslari, moliyaviy barqarorlik, tijorat banklari.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida banklar faoliyatini bozor sharoitida olib borish, jumladan, depozit operatsiyalarini samarali boshqarish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan [1].

Bugungi kunda global moliyaviy bozorlardagi beqarorlik, inflyatsiya bosimining kuchayishi hamda pul-kredit siyosatidagi o'zgarishlar tijorat banklari faoliyatiga, xususan, ularning resurs bazasi barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu sharoitda tijorat banklarining barqaror va uzoq muddatli moliyaviy faoliyatini ta'minlashda depozit bazasining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Depozitlar bank resurslarining asosiy manbai bo'lib, ularning hajmi, tarkibi va muddatligi bank likvidligi hamda kredit salohiyatini belgilab beradi.

Depozit bazasi barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar orasida foiz siyosati alohida o'rin tutadi. Foiz stavkalari orqali banklar aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning jamg'armalarini jalb etadi, depozit mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlaydi hamda mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantiradi. Biroq



foiz siyosatining noto'g'ri yoki asossiz tarzda olib borilishi depozitlar oqimining beqarorlashuviga, resurslar qiymatining oshishiga va bank moliyaviy barqarorligining zaiflashuviga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, foiz siyosatining samaradorligi nafaqat depozitlar bo'yicha belgilangan stavkalar darajasiga, balki ularning bozor kon'yunkturasi, inflyatsiya ko'rsatkichlari, Markaziy bank siyosati hamda aholining moliyaviy xulq-atvori bilan uyg'unlashuv darajasiga ham bog'liqdir. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda, bank tizimidagi islohotlar jarayoni foiz siyosatini takomillashtirish va depozit bazasi barqarorligini ta'minlash masalalarini yanada dolzarb qilib qo'yimoqda.

Mazkur maqolada tijorat banklarida depozit bazasi barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida foiz siyosatining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Shuningdek, foiz siyosati orqali depozit resurslarining barqarorligini ta'minlash mexanizmlari yoritilib, amaliyotda uchrayotgan muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining depozit bazasi barqarorligi va foiz siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi bank ishi va moliyaviy menejment sohasidagi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Xususan, klassik bank nazariyasida depozitlar bank resurslarining asosiy manbai sifatida qaralib, ularning barqarorligi bank likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim omili sifatida e'tirof etiladi.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda foiz siyosati depozitlarni jalb qilishning asosiy instrumentlaridan biri sifatida baholanadi. Jumladan, D. Polfremman va F. Ford o'z tadqiqotlarida foiz stavkalari darajasi bilan depozitlar muddati o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini asoslab bergan. Ularning fikriga ko'ra, yuqori va barqaror foiz stavkalari uzoq muddatli depozitlar ulushining oshishiga xizmat qiladi, bu esa bank resurs bazasining barqarorligini mustahkamlaydi [2].

F. Mishkin foiz siyosatini depozitlar oqimini shakllantiruvchi asosiy instrument sifatida baholaydi. Uning xulosasiga ko'ra, foiz stavkalari bozor sharoiti, inflyatsiya darajasi va Markaziy bankning pul-kredit siyosati bilan uyg'un holda belgilanmasa, depozitlar tarkibi beqarorlashadi va mijozlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchi pasayadi. Ayniqsa, yuqori inflyatsiya sharoitida nominal foiz stavkalarining yetarli darajada oshirilmasligi real foiz stavkalarining manfiylashuviga olib kelib, aholi jamg'armalarining bank tizimidan chiqib ketishiga sabab bo'lishi mumkin [3].

Shuningdek, G.S. Panova va V.M. Usoskin tadqiqotlarida tijorat banklarining foiz siyosati kredit va depozit operatsiyalari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi. Ularning ilmiy xulosalariga ko'ra, depozitlar bo'yicha foiz stavkalarining asossiz oshirilishi qisqa muddatda resurslar oqimini ko'paytirishi mumkin, biroq uzoq muddatda bank foydaliligi va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [4].

Gorton va Metrick foiz siyosatini depozit resurslarining harakatchanligiga bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida baholaydilar. Ularning fikriga ko'ra, bozor sharoitiga mos kelmaydigan yoki yuqori xavf sharoitida sun'iy ravishda oshirilgan foiz stavkalari qisqa muddatda depozitlar hajmini oshirishi mumkin, biroq uzoq muddatda depozit bazasi barqarorligini zaiflashtiradi. Bu holat banklar o'rtasida "foizlar orqali raqobat"ning kuchayishiga, resurslar qiymatining ortishiga va tizimli xavflarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi [5].

O.I. Lavrushinning fikriga ko'ra, foiz siyosati depozit bazasini shakllantirishda muhim iqtisodiy instrument hisoblanadi, biroq u yagona hal qiluvchi omil emas. Muallif ta'kidlashicha, depozitlar bo'yicha foiz stavkalarini asossiz ravishda oshirish banklar o'rtasida nosog'lom raqobatni kuchaytiradi, resurslar qiymatining ortishiga va foiz marjasining qisqarishiga olib keladi. Bu esa uzoq muddatda bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Lavrushin foiz siyosatini bankning umumiy depozit siyosati, risklarni boshqarish tizimi hamda aktiv va passivlarni muvofiqlashtirish (ALM) siyosati bilan uyg'un holda olib borish zarurligini ta'kidlaydi. Uning qarashlariga ko'ra, barqaror depozit bazasi faqat yuqori foiz stavkalari hisobidan emas, balki bankka bo'lgan ishonch, xizmatlar sifati, shaffoflik va uzoq muddatli mijozlar bilan munosabatlar orqali shakllanadi [6].

So'nggi yillarda chop etilgan empirik tadqiqotlarda foiz siyosati va depozit bazasi barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik makroiqtisodiy omillar bilan uyg'unlikda tahlil qilinmoqda. Xususan, inflyatsiya darajasi, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi va pul-kredit siyosati depozitlar hajmi hamda tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Ayrim tadqiqotlarda foiz stavkalari o'zgaruvchan bo'lgan sharoitda aholi jamg'armalarining qisqa muddatli va yuqori likvid depozitlarga yo'naltirilishi kuzatilishi qayd etilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida ham tijorat banklarining depozit siyosatini takomillashtirish masalalari keng yoritilgan. Ushbu ishlarda foiz siyosatini makroiqtisodiy barqarorlik, aholi daromadlari dinamikasi va banklararo raqobat bilan uyg'unlashtirish zarurligi asoslab berilgan. Shu bilan birga, amaliyotda foiz siyosati ko'proq depozitlar hajmini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, depozit bazasi barqarorligini ta'minlash masalasi yetarli darajada chuqur o'rganilmagan.



I. Raxmanov asarida depozitlar tijorat banklari resurs bazasining eng muhim va barqaror tarkibiy qismi sifatida tavsiflanadi. Muallifning fikriga ko'ra, depozitlar bankning moliyaviy barqarorligi va likvidligini ta'minlaydi hamda tashqi qarzlar va banklararo kreditlarga bog'liqlikni kamaytiradi. Shu sababli ularni jalb qilish va saqlash bankning strategik rejalari doirasida amalga oshirilishi lozim [7].

I. Jo'rayev asarida tijorat banklarining depozit siyosati bank resurs salohiyatini oshirishning asosiy vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Muallifning fikriga ko'ra, depozitlar bankning moliyaviy barqarorligi, likvidligi va kreditlash imkoniyatlarini kengaytirishda markaziy o'rin egallaydi. Shu bois depozit siyosati bank strategiyasining ajralmas qismi bo'lib, u uzoq muddatli rejalashtirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilishi zarur. Shuningdek, muallif bank obro'si va mijozlar ishonchi depozitlarning barqaror o'sishida hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi. Faqat yuqori foiz stavkalari orqali depozitlarni jalb qilish esa uzoq muddatda bankning moliyaviy barqarorligiga xavf tug'dirishi mumkin. Shu bois Jo'rayev depozit siyosatini bankning uzoq muddatli strategik rejasi bilan uyg'unlashtirishni tavsiya etadi [8].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, foiz siyosati tijorat banklari depozit bazasi barqarorligiga ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi. Biroq mazkur masalaning amaliy jihatlar, ayniqsa milliy bank tizimi sharoitida foiz siyosatining depozitlar barqarorligiga ta'sir mexanizmlarini kompleks o'rganish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida depozit bazasi barqarorligiga foiz siyosatining ta'sirini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli va institutsional yondashuvlar asos qilib olinib, bank foiz siyosati depozit resurslarini shakllantirish va ularning barqarorligini ta'minlash mexanizmi sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqotda nazariy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, mantiqiy tahlil kabi umumilmiy usullar qo'llanildi. Shuningdek, depozit bazasi barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilindi.

Empirik tahlil doirasida tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari, Markaziy bank statistik ma'lumotlari hamda rasmiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanildi. Foiz siyosati va depozitlar dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlikni baholashda statistik tahlil, dinamik qatorlar tahlili va strukturaviy taqqoslash usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida depozit bazasining barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri foiz siyosati hisoblanadi. Foiz siyosati bank tomonidan depozitlar bo'yicha belgilangan stavkalarni tanlash va ularni bozor kon'yunkturasi, inflyatsiya darajasi hamda bankning moliyaviy maqsadlariga muvofiqlashtirish mexanizmini ifodalaydi. Amaliy jihatdan foiz siyosati quyidagilarni o'z ichiga oladi: depozit turlariga (talab qilib olinadigan, muddatli va jamg'arma) muvofiq foiz stavkalarini belgilash, yuridik va jismoniy shaxslar depozitlarini segmentatsiya qilish va ularni rag'batlantirish, shuningdek, depozit bazasi barqarorligini doimiy monitoring qilish va tahlil etish. To'g'ri shakllantirilgan foiz siyosati mijozlarni jalb qilish va saqlash, bank resurslarini mustahkamlash, likvidlikni ta'minlash hamda moliyaviy barqarorlikni saqlashda hal qiluvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, foiz siyosati va uning amaliy jihatlar bankning uzoq muddatli strategik rejalashtirishida muhim element hisoblanadi.

Foiz siyosati – bu bank tomonidan depozitlar uchun belgilangan foiz stavkalarini tanlash va muvofiqlashtirish mexanizmi bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri mijozlarning depozitlarini jalb qilish va saqlash jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Foiz siyosatining ahamiyati quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

- depozitlarni jalb qilish salohiyatini oshirish, chunki mijozlar yuqori daromad keltiruvchi depozitlarni afzal ko'radi;

- depozitlar turi va muddatlarini optimallashtirish orqali talab qilib olinadigan, muddatli va jamg'arma depozitlari o'rtasida muvozanatni ta'minlash;

- bank barqarorligi va likvidligini ta'minlash, chunki haddan tashqari yuqori foiz stavkalari qisqa muddatda depozitlar hajmini oshirishi mumkin, biroq uzoq muddatda bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bank faoliyatida amalga oshiriladigan barcha siyosatlar muayyan tamoyillarga asoslanadi. Foiz siyosatini ishlab chiqishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. ichki va tashqi manbalardan olingan to'liq va ishonchli ma'lumotlardan foydalanish asosida tashqi omillarni (monetar siyosat parametrlari, valyuta siyosatini tartibga solish, inflyatsiya darajasi, qayta moliyalash stavkasi, ichki moliyaviy bozordagi talab va taklif) hamda ichki omillarni (bank risklari ko'lam, daromadlilik ko'rsatkichlari, operatsiyalar turlari va kontragentlar bo'yicha belgilangan limitlar) inobatga olgan holda resurslarni jalb qilish va aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun maqbul foiz stavkalarini belgilash;



2. passiv operatsiyalar bo'yicha bank resurs bazasining o'sishini ta'minlovchi optimal foiz stavkalarini o'rnatish;

3. aktiv va passiv operatsiyalar bo'yicha bazaviy foiz stavkalarini belgilovchi ichki me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

4. depozitlar (omonatlar) bo'yicha foiz stavkalarini Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi hamda inflyatsiya darajasining so'nggi yillardagi o'zgarishlarini hisobga olgan holda belgilash.

Tijorat banklarining depozitlar tarkibini to'g'ri baholash bank depozit bazasining sifati va u bo'yicha foiz siyosatiga doir qarorlarni qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muddatli va jamg'arma depozitlarini tijorat banklariga keng miqyosda jalb etish bevosita ularga to'lanadigan foiz stavkalari darajasiga bog'liq. Chunki aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlar ushbu hisobraqamlarga daromad olish maqsadida pul mablag'larini joylashtiradi. Shu bilan birga, tijorat banklariga bo'lgan ishonch ham depozit bazasining barqaror shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish va bank xizmatlari samaradorligini ta'minlash bank strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biridir. Bank faoliyatining umumiy samaradorligi bevosita bank xizmatlari samaradorligi bilan bog'liq bo'lib, u esa xizmatlar bahosi darajasiga chambarchas aloqador. Bank xizmatlari bozorida yetakchi o'rinlarni egallash, xizmatlar turi va sifatini oshirish bugungi kunda tijorat banklari baho siyosatining ustuvor strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari xizmatlari bahosi xizmatlar tannarxi, bozordagi talab hamda raqobatchilarning mazkur xizmatlar bo'yicha baho darajasiga muvofiq shakllantiriladi. Ma'lumki, har qanday mahsulot va xizmatlar bahosini belgilashda asosiy omil sifatida uning tannarxi hisobga olinadi. Tijorat banklari xizmatlarining bahosi tannarxga rejalashtirilgan marja (foyda) qo'shish orqali shakllanadi.

Shu bilan birga, depozit xizmatlari bahosini mijozlar talabi va manfaatlarini hisobga olgan holda, ularga qulay bo'lgan shaklda moslab va zarur hollarda qayta ko'rib borish lozim. Chunki jismoniy shaxslar bo'sh pul mablag'larini bankka joylashtirishda, asosan, depozit stavkalarining darajasi va bankning ishonchiligi kabi omillarga alohida e'tibor qaratadilar.

1-jadval. Milliy valyutadagi bank depozitlari bo'yicha foiz stavkalari, (o'rtacha tortilgan foiz stavkalari, yillik hisobda)

Depozit turi va muddati	2024-yil											
	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avqust	Sentabr	Oktabr	Novabr	Dekabr
Jami muddatli depozitlar	19,8	19,7	19,9	19,2	18,6	20,0	19,3	19,8	19,2	19,7	19,4	19,6
1 yilgacha bo'lgan depozitlar	18,6	18,4	18,3	19,3	18,5	18,8	17,4	18,4	17,0	17,9	16,9	18,1
1 yildan yuqori bo'lgan depozitlar	20,4	20,2	20,3	19,2	18,6	20,6	20,6	20,7	20,5	20,6	20,6	20,3
Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari	21,3	21,3	21,4	21,6	21,2	22,0	22,1	22,0	22,0	22,1	22,1	22,1
1 yilgacha bo'lgan depozitlar	20,0	20,0	20,2	20,3	20,8	21,2	20,6	20,8	21,0	20,9	20,9	20,8
1 yildan yuqori bo'lgan depozitlar	21,5	21,5	21,6	21,8	21,3	22,1	22,4	22,3	22,3	22,4	22,4	22,4
Yuridik shaxslarning muddatli depozitlari	18,5	17,9	18,0	16,9	16,2	17,9	16,7	17,8	16,2	17,1	16,3	16,8
1 yilgacha bo'lgan depozitlar	18,1	17,9	16,9	18,8	17,5	17,9	16,5	17,7	15,4	16,6	14,9	16,9
1 yildan yuqori bo'lgan depozitlar	18,9	18,0	18,4	16,0	15,2	18,0	17,1	17,9	17,2	17,6	17,6	16,8

2024-yilda milliy valyutadagi muddatli bank depozitlari bo'yicha foiz stavkalari depozit turlari va muddatiga ko'ra farqlanib, ayrim asosiy tendensiyalarni namoyon etadi.

Yil boshida (yanvar oyida) jami muddatli depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 19,8 foizni tashkil etib, yil davomida 19,6 foiz darajasigacha pasaygan. Bir yilgacha bo'lgan muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalari 18,6 foizdan 18,1 foizgacha kamayib, nisbatan past va o'zgaruvchan xususiyatini saqlab qolgan. Bir yildan yuqori muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalari esa 20,4 foizdan 20,3 foizgacha biroz pasaygan bo'lsa-da, umumiy holda barqaror yuqori darajada qolib, uzoq muddatli depozitlarga ustuvorlik berish tendensiyasini ko'rsatadi.

Jismoniy shaxslar uchun muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalari yil davomida o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 21,3 foizdan 22,1 foizgacha ko'tarilgan. Bir yilgacha bo'lgan muddatli depozitlarda ham foiz stavkalari 20,0 foizdan 20,8 foizgacha oshgan bo'lib, bu qisqa muddatli depozitlarning ham mijozlar uchun rag'batlantiruvchi



omil ekanligini ko'rsatadi. Bir yildan yuqori muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalari 21,5 foizdan 22,4 foizgacha yetib, jismoniy shaxslar asosan uzoq muddatli depozitlarni afzal ko'rayotganini tasdiqlaydi.

Yuridik shaxslar uchun muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalari esa yil davomida pasayish tendensiyasini namoyon etgan bo'lib, yanvardan dekabrgacha 18,5 foizdan 16,8 foizgacha tushgan. Bir yilgacha bo'lgan muddatli depozitlarda foiz stavkalarining sezilarli pasayishi kuzatilib (18,1 foizdan 16,9 foizgacha), bir yildan yuqori muddatli depozitlarda ham foiz stavkalari 18,9 foizdan 16,8 foizgacha kamaygan. Bu holat yuridik shaxslar depozitlarining nisbatan kam rag'batlantirilganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, jismoniy shaxslar depozitlari yuridik shaxslar depozitlariga nisbatan yuqori va barqaror bo'lib, bank resurs bazasining asosiy manbai sifatida namoyon bo'lmoqda. Qisqa muddatli depozitlar nisbatan o'zgaruvchan bo'lib, ular bo'yicha bank foiz siyosatining ahamiyati yuqori hisoblanadi. Yuridik shaxslar depozitlari hajmining yil davomida kamayishi banklar uchun resurs bazasini diversifikatsiya qilish va mijozlar bilan munosabatlarni mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Depozit bazasi barqarorligiga eng katta hissa jismoniy shaxslarning uzoq muddatli depozitlari hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu depozitlar bank resurs bazasini mustahkamlaydi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Qisqa muddatli depozitlar esa o'zgaruvchanligi sababli barqarorlikka ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi, shu bois ular bo'yicha mijozlarni rag'batlantiruvchi moslashuvchan foiz siyosatini ishlab chiqish zarur. Yuridik shaxslar depozitlarining pasayishi banklar uchun muhim signal bo'lib, resurslarni diversifikatsiya qilish va strategik boshqaruvni takomillashtirish lozimligini anglatadi. Umuman olganda, o'rtacha tortilgan foiz stavkalarini depozit turlari va muddatlari bilan muvofiqlashtirish orqali banklar o'z resurs salohiyatini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

2-jadval. Chet el valyutasidagi bank depozitlari bo'yicha foiz stavkalari, (o'rtacha tortilgan foiz stavkalari, yillik hisobda)

Depozit turi va muddati	2024-yil											
	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avqust	Sentabr	Oktabr	Novabr	Dekabr
Jami muddatli depozitlar	4,7	4,9	5,1	5,1	5,6	5,5	4,7	4,7	4,9	4,8	5,2	5,3
1 yilgacha bo'lgan depozitlar	3,0	3,5	3,5	3,3	2,9	4,4	3,1	3,3	3,9	3,3	3,3	2,8
1 yildan yuqori bo'lgan depozitlar	5,6	5,5	5,7	5,8	6,4	5,9	6,0	5,3	5,3	5,2	5,6	5,7
Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari	4,7	5,0	5,4	5,6	5,6	5,4	5,5	4,6	4,9	4,8	5,0	5,2
1 yilgacha bo'lgan depozitlar	3,0	3,6	3,7	3,7	3,2	3,4	3,5	3,0	3,7	3,6	3,1	2,8
1 yildan yuqori bo'lgan depozitlar	5,3	5,3	5,7	5,9	6,2	5,8	5,9	5,2	5,2	5,1	5,5	5,8
Yuridik shaxslarning muddatli depozitlari	4,8	4,6	4,1	4,1	5,5	5,8	3,5	5,5	5,3	4,8	6,3	5,4
1 yilgacha bo'lgan depozitlar	3,0	3,4	3,2	3,2	2,6	5,5	3,0	4,5	4,3	2,4	5,8	4,5
1 yildan yuqori bo'lgan depozitlar	6,1	6,7	5,8	5,7	7,2	6,0	7,0	6,6	5,9	6,6	6,4	5,5

2024-yilda chet el valyutasidagi muddatli depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari depozit turlari va muddatlariga qarab o'zgarib bordi. Jami muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkasi yanvar oyidagi 4,7 foizdan dekabr oyida 5,3 foizgacha oshgan bo'lib, bu asosan bir yildan yuqori muddatli depozitlar bo'yicha yuqori va barqaror foiz stavkalari (5,6 foizdan 5,7 foizgacha) bilan izohlanadi. Qisqa muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalari nisbatan past va o'zgaruvchan bo'lib, yil davomida 3,0 foizdan 2,8 foizgacha pasaygan.

Jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi depozitlari, asosan, barqaror va yuqori darajada shakllanib, bir yildan yuqori muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalari 5,3 foizdan 5,8 foizgacha oshgan. Bu holat jismoniy shaxslar depozitlarining bank resurs bazasini shakllantirishdagi muhim ahamiyatini ko'rsatadi.

Yuridik shaxslarning chet el valyutasidagi depozitlari esa nisbatan yuqori o'zgaruvchanlikka ega bo'lib, yil davomida foiz stavkalari 4,8 foizdan 5,4 foizgacha o'zgargan. Bir yildan yuqori muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalari 6,1 foizdan 5,5 foizgacha pasaygan bo'lib, bu yuridik shaxslar depozitlari barqarorligini ta'minlashda qo'shimcha foiz siyosati va rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Chet el valyutasidagi depozitlar bo'yicha barqarorlik asosan jismoniy shaxslarning uzoq muddatli depozitlari hisobiga ta'minlanmoqda. Ushbu depozitlar bank resurs bazasini mustahkamlaydi va moliyaviy barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi.



Qisqa muddatli depozitlar esa o'zgaruvchanligi sababli depozit bazasi barqarorligiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi, shu bois ular bo'yicha mijozlarni rag'batlantiruvchi moslashuvchan foiz siyosatini ishlab chiqish zarur.

Yuridik shaxslar depozitlarining nisbatan o'zgaruvchanligi va ayrim segmentlarda pasayish tendensiyasining kuzatilishi banklar uchun resurslarni diversifikatsiya qilish, depozitlarni jalb etish bo'yicha qo'shimcha choralarni amalga oshirish zarurligini anglatadi.

Umuman olganda, chet el valyutasidagi depozitlar bo'yicha uzoq muddatli va barqaror foiz stavkalari bank resurs bazasini kengaytirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida foiz siyosatining shakllanish tajribalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining kredit xizmatlari bozoridagi rolini oshirish va mijozlar bazasini kengaytirishning muhim yo'nalishlaridan biri foiz siyosatini optimal darajada shakllantirish hisoblanadi. AQSh va Rossiya tijorat banklarida foiz siyosatini shakllantirish amaliyotida qo'llanilayotgan usullar samarali bo'lib, ular quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

- birinchidan, bank tomonidan jalb qilingan resurslar bahosi, kreditlash amaliyoti bilan bog'liq xarajatlar hamda yetarli foyda marjasini ta'minlaydi;

- ikkinchidan, mijozlar bazasini mustahkamlab, bankning kredit xizmatlari bozoridagi faolligini oshiradi.

Shu sababli banklarda foiz siyosati iqtisodiy jihatdan asoslangan, qarz oluvchi va bank manfaatli o'zaro muvozanatda hisobga olingan holda shakllantirilishi lozim. Bank foiz siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblangan jalb qilingan majburiyatlar bo'yicha to'lanadigan foiz xarajatlarining umumiy xarajatlar tarkibidagi ulushini, ularning tuzilmasini optimallashtirish, tahlil qilish va samarali boshqarish zarur. Chunki tijorat banklarining barqaror moliyaviy resurslarga ega bo'lishi, avvalo, bank majburiyatlari tuzilmasiga bevosita bog'liqdir.

Kredit bahosining kredit xizmatlari tannaxsini hisobga olmasdan shakllantirilishi bank faoliyati natijalarining zarar bilan yakunlanishiga, ayrim hollarda esa bankrotlikka olib kelishi mumkin. Shu bois kreditlash amaliyotida bank tomonidan kreditlash bilan bog'liq barcha xarajatlar, eng avvalo, jalb qilingan resurslar bahosi inobatga olinishi lozim. Bu esa banklardan resurs bazasini mustahkamlash va uni samarali boshqarishni talab qiladi.

Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan talab qilib olinadigan depozitlardan to'g'ridan-to'g'ri resurs sifatida foydalanish ularning likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, sof foizli spred koeffitsientining real darajasini aniqlash imkonini ham cheklaydi. Mazkur holat quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- talab qilib olinadigan depozitlar beqaror manba bo'lib, ular istalgan vaqtda mijoz tomonidan qaytarib olinishi mumkin;

- sof foizli spred koeffitsientini hisoblashda talab qilib olinadigan depozitlar summasi va ularga to'langan foizlar hisobga olinmaydi.

Mustahkam resurs bazasiga ega bo'lish banklardan puxta ishlab chiqilgan depozit siyosatini talab etadi. Depozit siyosatini amalga oshirish jarayonida depozit xizmatlari bahosini shakllantirish muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tijorat banklari depozit xizmatlari bahosi bir qator omillar ta'sirida shakllanadi. Xalqaro bank amaliyotida bank xizmatlari bahosini belgilash, asosan, raqobatchi banklar baholarini tahlil qilishga asoslanadi. Bozor holati va raqobatchilar siyosatini hisobga olgan holda banklarning baho siyosatini moslashtirishi samarali hisoblanadi. Bank xizmatlari bahosini raqobatchilar bahosiga muvofiq shakllantirish quyidagi afzalliklarga ega:

- bank xizmatlari bahosining elastikligi ta'minlanadi;

- tijorat banklari xizmatlar bozorida o'z pozitsiyasini mustahkamlaydi va mijozlar bazasini kengaytiradi;

- bankning yuqori daromad olishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" PF-5992-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. Polfrem D., & Ford, F. (1996). Fundamentals of Banking. London: Pitman Publishing.
3. Mishkin F.S. (2019). The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Pearson Education.
4. Panova G.S. (1997). Credit Policy of a Commercial Bank. Moscow: IKTs "DIS".
5. Gorton G., & Metrick A. (2012). Regulating the shadow banking system. Brookings Papers on Economic Activity.
6. Lavrushin O.I. (2008). Bankovskoe delo [Banking business]. Moscow: Knorus. ISBN 978-5-85971-951-8.
7. Rakhmanov I.Kh. (2025). Strategic planning for ensuring the stability of commercial banks' resource base. Academia Open, 10(2). <https://doi.org/10.21070/acopen.10.2025.12235>
8. Jo'rayev I. (2023). Tijorat banklari depozit siyosatining banklar resurs salohiyatini oshirishdagi roli. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 1(11-12). https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss11-12/a341
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Yillik hisobotlar. <https://cbu.uz/uz/publications/annual-report/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
